



SHILLERNING “MAKR VA MUHABBAT” ASARIDA HAQIQIY ISHQ
TIMSOLI

Shermo`minova Jasmina

Termiz davlat universiteti

o`zbek filologiyasi fakulteti

2-bosqich 123-guruh talabasi

jshermominova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Shillerning “Makr va muhabbat” asaridagi Ferdinandning sevgilisi Luizaga bo`lgan haqiqiy sevgisi hamda ishq va rashk tufayli uni o`ldirish darajasiga borishi yoritib beriladi.*

Kalit so`zlar: *Ferdinand, Luiza, ishq, timsol, protatip, asar.*

Abstract: *This article examines Ferdinand's true love for his beloved Louise in Schiller's "Love and Deceit" and how his love and jealousy drive him to the point of murder.*

Keywords: *Ferdinand, Louise, love, symbol, prototype, work.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается истинная любовь Фердинанда к своей возлюбленной Луизе в произведении Шиллера «Любовь и обман», а также то, как его любовь и ревность доводят его до убийства.*

Ключевые слова: *Фердинанд, Луиза, любовь, символ, прототип, произведение.*

Asarga kirishdan oldin uning muallifi haqida gapiradigan bo`lsak, Shiller Iogann Kristof Fridrix (1759.10.11, Nekkar bo`yidagi Marbax — 1805.9.5, Veymar) — nemis shoiri, dramaturg, tarixchi, san`at nazariyotchisi. Nemis mumtoz adabiyotining asoschilaridan. Lyudvigsburgdagi lotin maktabini tugatgach (1772), harbiy maktab (akademiya) ning huquq va tibbiyot bo`limlarida o`qigan. Akademiyadagi maslaqdosh do`stlari bilan birga "muxolif poetik klub" tuzgan. shahrining o`zaro insoniy munosabatlardagi nafrat va g`arazgo`ylikni tasvirlovchi "Qaroqchilar" (1781) singari dastlabki asarlari shu klubda muhokama etilgan. Mazkur tragediyada uslubiy har xillik (shekspirona tragizm, barokko san`atiga xos istioraviylik, Russo asarlariga xos notiqlik) ka yo`l qo`yilgan bo`lsada, u nemis dramaturgiyasida siyosiy yo`nalishga ega bo`lgan yangi lirik drama janrini boshlab bergan.

Fridrix Shillerning “Makr va muhabbat” tragediyasi nemis adabiyotining eng yorqin asarlaridan biri bo`lib, unda haqiqiy sevgi va ijtimoiy tengsizlik o`rtasidagi kurash tasvirlanadi. Asarda Luiza va Ferdinand o`rtasidagi muhabbat chinakam sevgi timsoli sifatida gavdalanadi. Asardagi markaziy konflikt – turli ijtimoiy tabaqalarga mansub ikki yoshning sevgisi. Ferdinand – oliy tabaqali generalning o`g`li, Luiza esa oddiy musiqachining qizi. Ularning bir-biriga bo`lgan muhabbati jamiyat qoidalariga, manfaati ustun bo`lgan odamlarning rejasiga to`g`ri kelmaydi. Shiller bu sevgi orqali insoniy tuyg`ularning beqiyosligini, haqiqat va samimiyat har qanday kimsalarning fitnasidan ustun



ekanligini ko'rsatishga harakat qiladi. Luiza o'z sevgisiga sadoqatli bo'lsa, Ferdinand ham unga nisbatan ishonch va hurmat bilan yondashadi. Bunga isbot sifatida uning Luizaga bo'lgan sevgisini isbotlash tariqasida aytgan quyidagi gaplarini keltirishimiz mumkin:

“Mayli oramizda tog'larday to'siqlar bo'lsin.... Ular menga zinapoyalik vazifasini o'taydi. Men bu zinapoyalar orqali sening quchoqog'ingga tezroq yetaman. Qara, taqdirning chaqmoqlari tuyg'ularimga zo'rroq alangalar beradi. Ammo bu xavf-xatar sening bir xuningga o'n xusn qo'shadi... Qo'rqaman dema, jonim.... Men seni o'zim zarrin tilsim qo'riqlagan ajdarhoday himoya qilaman. M=Menga ishon seni saqlash uchun menga hech qanday farishta kerak emas, men taqdir va sening o'rtangga o'zimni tashlayman, sen uchun har qanday og'ir kulfatga roziman, har shodlik tomchilarini to'plab, uni ishq kosasida senga uzataman. Sen mening quchog'imda umringni xalovat bilan o'tkazasan. Haqiqiy sevgi fidoyilikni talab qiladi. Luiza qanchalik sadoqatli bo'lmasin, Ferdinand fitnalarga ishonib, oxir-oqibat fojiali qarorga keladi. Biroq asar oxirida Luiza o'z sevgisiga sodiq qoladi va hatto o'lim oldida ham o'z mehrini yo'qotmaydi. Bu esa uning chinakam muhabbat timsoli ekanini isbotlaydi. Asardagi salbiy obrazlar – Prezident va Vurm makr va hiylani o'z quroliga aylantirgan. Ular insoniy tuyg'ularni, ayniqsa, haqiqiy sevgini yo'q qilishga intiladi. Ammo Shiller asar davomida sevgi baribir inson yuragida pok va buyuk tuyg'u bo'lib qolishini ko'rsatadi.

Shillerning “Makr va muhabbat” asari haqiqiy sevgi faqat yurak bilan qabul qilinishi, ijtimoiy tengsizlik va fitnalar uning oldida ojiz ekanini ko'rsatadi. Luiza va Ferdinand sevgisi sadoqat, ishonch va fidoyilik timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, ushbu asar chinakam muhabbatning murakkab sinovlardan qanday o'tishini ko'rsatuvchi muhim asar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Muhabbat bu shunchaki his emas, u insonni abadiy yashatadigan kuchdir. Luiza va Ferdinandning sevgisi hayotdan ham ustun bo'lib, o'lim oldida ham o'zini yo'qotmadi. Ularning fojiasi – faqat ikki yurakning emas, balki jamiyatning adolatsizligiga qarshi ko'tarilgan nidosidir. Sevgisi yo'lida halok bo'lgan odamlar aslida mag'lub emas – ularning ismi unutilsa ham, sevgisi unutilmaydi.

Shiller bizga shuni o'rgatadiki, haqiqiy sevgi fitnalar va shubhalar ostida ham yashaydi, agar yurak unga sodiq qolsa. Luiza sevgan insonining qo'lida jon berar ekan, ko'zlarida g'azab emas, balki muhabbat bor edi. Chunki u sevgi uchun yashadi, sevgi uchun ketdi. Oxir-oqibat, makr yutadi, ammo muhabbat yengiladi degani emas. Chunki sevgi bu dunyoviy qonunlarga bo'ysunmaydigan, shon-sharaf yoki mansab oldida egilmaydigan yagona haqiqatdir.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Foydalanilgan adabiyotlar

1. www.ziyouz.com kutubxonasi
2. fll.jdpu.uz
3. oefen.uz
4. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/dunyo-adabiyoti-turkumi-sofokl.html>

